

**PO‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

IQTISODIYOT VA MENEJMENT KAFEDRASI

60410800-“Menejment” ta‘lim yo‘nalishi

109-guruh talabalari uchun

OCHILOVA MOHIGUL TOSHEMIR QIZIning

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan

**“Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti” mavzusida ochiq amaliy darsining
ishlanmasi**

Samarqand – 2026

Tuzuvchi:

M.T.Ochilova– “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

I.F.Umirov– Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
“Iqtisodiyot va muhandislik fanlar” kafedrası dotsenti. PhD

I.Salamov – “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti, I.f.n.

Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma

boshlig‘i, professor v.v.b.

Sh.Qurbanov

“Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti” mavzusidagi amaliy mashg`ulot o`qitish texnologiyasi

Vahti-2 soat.	Talabalar soni: 2-nafar.
O`quv mashg`ulotining shakli	Binar amaliy munozara.
Amaliy mashg`uloti rejasi	
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari, narx darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, turli darajadagi raqobat sharoitida narxning shakllanish, narx turlari bo'yicha ko'nikmlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; o'z fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni rag'batlantirish; muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash ko'nikmalarini hosil qilish; kommuniksiya, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba: Jahon bozori mazmuni va turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi; Jahon savdo tashkiloti uning vazifalari va faoliyati haqida bilib oladi Jahon bozorida raqobat va kelajak tendensiyalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O`qitish usullari va texnikasi	Munozara, muammoli usul. To`g`ridan-to`g`ri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali
O`qitish vositalari	O`quv qo`llanmalar, o`quv daftarlari, A4 kattaligidagi qog`oz, marker, skotch.
O`qitish shakllari	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
O`qitish sharoitilari	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

**“Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti” mavzusidagi amaliy mashg`ulotining
texnologik kartasi**

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. O`qitish guruhlarida ishlash texnologiyasi asosida oshib borilishini e`lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi.</p> <p>Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlariga ishlar taqdimotidan so`ng davom etishini e`lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarida ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog`ozlarda ko`rsatilishi kerakligini ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O`quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarida ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>Taqdimot va guruhlarida ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo`shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>Mashg`ulotga yakun yasaydi, faol ishtirokchilarni rag`batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o`quv faoliyatidagi ahamiyatini ta`kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

Amaliy mashg'ulot mavzusi: "Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti"

Reja:

1. Jahon bozori tushunchasi va uning turlari.

2. JSTning tashkil topishi va O'zbekistonda JSTga a'zo bo'lishning SWOT tahlili

Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi. [Xalqaro savdo](#) munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lgan, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, ammo ko'pgina mamlakatlar, so'ngra jaxondagi barcha mamlakatlar savdosini qamraydigan Jahon bozori (uning negizida jahon xo'jaligi) faqat yirik mashinalashgan industriyaga o'tish bilan shakllana boshladi va 20-asr boshiga kelib qaror topdi. Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini kengaytirdi, tashqi savdo u yoki bu mamlakatning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli i. ch. imkonini bersa, tovarlarni i. ch. da resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va Jahon bozoriga yetkazib beriladi. Biror mamlakatda resurslarni sarflash qulay bo'lmagan yoki i. ch. imkoni bulmagan tovarlar Jahon bozoridan sotib olinadi. Jahon bozorida alohida narxlar — jahon narxlari amal qiladi; ayirboshlash ulgurji shaklda va xalqaro birjalar vositasida olib boriladi.

Jahon bozori tovar, mehnat, kapital va valyuta bozorlari majmuidan tashkil topadi (qarang [Mehnat bozori](#), [Ishchi kuchi bozori](#)). Jahon bozorida barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuini ifoda etadigan xalqaro savdo amalga oshiriladi. Bu tarkiban jahon miqyosidagi eksport va importdan iborat, ularning qiymat bo'yicha nisbati [savdo balansi](#) deb yuritiladi.

Jahon bozori xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug'urta kompaniyalaridan iborat bo'lgan o'z infratuzilmasiga ega. Jahon bozori to'lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o'tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalar, maye, AQSH dollari, [Yaponiya](#) iyenasi va yevroda olib boriladi. Jahon bozori ixtisoslashgan xalqaro birjalardan iborat yirik segmentlariga ega. Maye, Chikago don birjasi, Liverpool paxta birjasi va [London](#) rangli metallar birjasi va b. Jahon bozorida savdo-sotiq xalqaro birja bitimlari, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama birjadan tashqari bitimlar yo'nalishlarida boradi.

Jahon bozoridagi savdo-sotiqni maxsus tashkilot — Jahon savdo tashkiloti boshqarib boradi, davlatlararo savdo tartibi va qoidalarini belgilab beradi, unga a'zo bo'lganlar o'zlari uchun qulay savdo qilish huquqini oladilar.

O'zbekistonda JST bo'lishi afzalliklari SWOT analizi.

Afzalliklari:

Xorijiy sarmoyaning ortishi: JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston fond bozoriga ko'proq xorijiy sarmoyalarni jalb qiladi, chunki bu xalqaro savdo normalari va qoidalariga sodiqlikdan dalolat beradi;

Bozorning kengayishi: JSTga a'zo bo'lish orqali kengroq bozorlarga kirish O'zbekiston kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlarni ochib, ularning aksiyalari narxining potentsial o'sishiga olib kelishi mumkin;

Savdoni diversifikatsiya qilish: JSTning bir qismi bo'lish O'zbekiston eksportini diversifikatsiya qilishni rag'batlantiradi, muayyan tarmoqlar yoki bozorlarga qaramlikni kamaytiradi. Ushbu diversifikatsiya fond bozorining tashqi zarbalarga chidamliligiga hissa qo'shadi.

Kamchiliklari:

O'tish muammolari: JST qoidalariga moslashish iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun qisqa muddatli muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa fond bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

Raqobatning kuchayishi: Xalqaro bozorlarga ochilish mahalliy korxonalar, ayniqsa raqobatbardoshligi past bo'lgan sanoat korxonalarini uchun raqobatni kuchaytirishi va ularning aksiyadorlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin;

Normativ o'zgarishlar: JST qoidalariga rioya qilish investorlarni dastlab bezovta qiladi, bo'lgan tartibga soluvchi o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa fond bozorida qisqa muddatli o'zgaruvchanlikka olib keladi.

Imkoniyatlar:

Bozor integratsiyasi: Jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv O'zbekiston kompaniyalari uchun o'z faoliyatini xalqaro miqyosda kengaytirish imkoniyatlarini oshirishga olib keladi, bu ularning fond bozoridagi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

Kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish: Xalqaro bozorlarga chiqish O'zbekiston kompaniyalariga xorijiy investitsiyalar va moliyalashtirish orqali kapitalga oson kirishni ta'minlashi, fond bozoridagi o'sishni rag'batlantiradi;

Iqtisodiy barqarorlikning yaxshilanishi: JSTga a'zo bo'lish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida barqarorlik va prognozlilikdan darak beradi, bu esa fond bozoriga ko'proq investorlarni jalb qilishi va umumiy iqtisodiy barqarorlikni yaxshilashi mumkin.

Tahdidlar:

Savdo taqchilligi: Savdoni liberallashtirish tufayli importning oshishi savdo taqchiligiga olib keladi, bu esa mamlakatning to'lov balansiga bosim o'tkazishi va investorlarning fond bozoriga ishonchiga ta'sir qiladi;

Spekulyativ oqimlar xavfi: Jahon moliya bozorlari bilan kengroq integratsiyalashuv O'zbekiston fond bozorini spekulyativ oqimlarga va tashqi shoklarga duchor qilib, o'zgaruvchanlikni oshiradi;

Ichki muxolifat: Ba'zi mahalliy sanoat yoki siyosiy fraksiyalarning JST a'ziligiga qarshilik ko'rsatishi bozorda noaniqlikni keltirib chiqarishi va investorlarning ishonchini susaytirishi mumkin.

ilova.

Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarni baholash – 5 min.

2-ilova.

Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlarilozim;

Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;Har biri yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini

3-ilova.

Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)

Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riligi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammo nifaol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

4-ilova.

1-topshiriq: Quyidagi xalqaro savdo qonuniyatlariga ta`rif bering va ularning jahon bozoriga ta`sirini izohlang.

Qonuniyat	Tarifi	Tasiri
Korporativ ustunlik		
Erkin savdo		
Proteksionizm		
Savdo balansi		

► **Savol:** O`zbekiston xalqaro savdoda qaysi qonuniyatlarga ko`proq amal qilishi kerak?

2-topshiriq: Quyidagi tushunchalar va ularning tavsiflarini mos ravishda bog'lang.

Tushuncha	Tavsif
Monetar siyosat	Pul massasini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash
Byudjet defitsiti	Davlatning xarajatlari daromadlaridan oshib ketishi
Markaziy bank	Pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi asosiy muassasa
Inflyatsiya	Pul qiymatining pasayishi va narxlarning umumiy darajada oshishi
Fiskal siyosat	Davlatning soliqlar va xarajatlar orqali iqtisodiyotni boshqarishi

3-topshiriq: Jahon bozoridagi muammolar va tendensiyalar.

Vazifa: Jahon bozorida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlang va ularni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqing.

Muammo	Sababi	Yechim

4-topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

1. Jahon bozorining asosiy tarkibiy qismlaridan biri qaysi?

- a) Ichki bozor
- b) Tovar bozori
- c) Mahalliy xizmatlar bozori
- d) Faqat qimmatli qog'ozlar bozori

2. Xalqaro savdoga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qaysilar?

- a) Mahalliy talab va taklif
- b) Valyuta kurslari, tariflar va kvotalar
- c) Faqat iqtisodiy o'sish sur'ati
- d) Ichki iste'mol bozori

3. WTOning asosiy vazifasi nima?

- a) Davlatlar o'rtasida siyosiy kelishuvlarni tartibga solish
- b) Xalqaro savdo qoidalarini belgilash va tartibga solish
- c) Dunyo bo'ylab yangi bozorlarga yo'l ochish
- d) Davlatlar o'rtasida valyuta ayirboshlash tizimini nazorat qilish

4. Eksport va import o'rtasidagi farq nimada?

- a) Eksport – mahsulotni chet eldan sotib olish, import esa chet elga sotish
- b) Eksport – ichki bozorda sotiladigan mahsulot, import esa xorijdan keladigan mahsulot
- c) Eksport – mamlakat tashqarisiga sotiladigan mahsulot, import esa mamlakat ichiga olib kiriladigan mahsulot
- d) Eksport va import o'rtasida hech qanday farq yo'q

5. WTOga a'zo bo'lish uchun davlat qanday talablarga javob berishi kerak?

- a) Ichki iqtisodiy siyosatning WTO talablariga mos bo'lishi
- b) Faqat rivojlangan davlat bo'lishi
- c) Xalqaro kreditlarga ega bo'lishi
- d) Barcha davlatlar avtomatik ravishda WTOga qo'shilishi mumkin

6. O'zbekiston WTOga a'zo bo'lish jarayonini qachon boshlagan?

- a) 1991-yilda
- b) 1994-yilda
- c) 2001-yilda
- d) 2015-yilda

7. WTOning asosiy tamoyillaridan biri nima?

- a) Proteksionizm
- b) Erkin savdo
- c) Mahalliy mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash
- d) Faqat kuchli davlatlar manfaatlarini himoya qilish

8. Xalqaro savdoning asosiy qonuniyatlaridan biri komparativ ustunlik nima?

- a) Davlatning barcha tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha ustunligi
- b) Davlatning eng samarali ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi
- c) Davlat faqat o'z ichki bozorini himoya qilishi
- d) Chet el investitsiyalarini cheklash

9. WTO qanday masalalarni hal qiladi?

- a) Xalqaro urushlar
- b) Xalqaro savdo nizolari va tariflar
- c) Ichki iqtisodiy siyosat
- d) Mahalliy soliq tizimini tartibga solish

10. Jahon bozorida eng yirik eksportyor davlatlardan biri qaysi?

- a) Kanada
- b) Germaniya
- c) Xitoy
- d) Rossiya

11. WTO a'zolari qanday kelishuvlarga rioya qilishlari shart?

- a) Faqat o'z milliy qonunlari asosida ish yuritishlari mumkin
- b) WTOning umumiy savdo qoidalariga rioya qilishlari kerak
- c) O'z iqtisodiy siyosatini mustaqil belgilash
- d) Faqat rivojlangan davlatlar bilan savdo qilish

12. Xalqaro savdo balansining ta'rifi qaysi?

- a) Davlatning import va eksport o'rtasidagi farqi
- b) Ichki bozor talab va taklifi
- c) Chet el investitsiyalarining darajasi
- d) Faqat eksport qilingan mahsulotlar qiymati

13. WTO a'zolari uchun asosiy afzalliklardan biri nima?

- a) Ichki ishlab chiqarishni to'liq himoya qilish
- b) Xalqaro savdoda diskriminatsiyadan himoyalaniish
- c) Faqat bitta davlat bilan hamkorlik qilish
- d) Cheklovlarisiz import qilish

14. WTO doirasida qaysi vosita xalqaro savdo nizolarini hal qilish uchun ishlatiladi?

- a) Maxsus xalqaro harbiy sud
- b) Arbitraj tizimi
- c) Faqat davlatlararo kelishuv
- d) Diplomatik muzokaralar

15. O'zbekistonning WTOga qo'shilishi qanday afzalliklarni ta'minlaydi?

- a) Yangi bozorga kirish imkoniyati
- b) Milliy ishlab chiqaruvchilarni cheklash
- c) Soliq stavkalarining oshishi
- d) Faqat chet el investitsiyalarining pasayishi